



UO'K:

TURON TEATR TRUPPASI: O'ZBEK SAHNA SAN'ATINING SHAKLLANISHIDA IJTIMOYIY-MA'NAVIY OMIL**ТРУППА ТЕАТРА «ТУРОН»: СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНЫЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ УЗБЕКСКОГО СЦЕНИЧЕСКОГО ИСКУССТВА****THE TURON THEATER TROUPE: A SOCIO-SPIRITUAL FACTOR IN THE FORMATION OF UZBEK STAGE ART**¹Matyoqubova Hilola Alisher qizi

Yangi asr universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (Arab tili) ta'lim yo'nalishi talabasi

²Yuldashxodjayev Xaydar Xashimxanovich

Yangi asr universiteti dotsenti

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada Abdulla Avloniyning o'zbek ma'rifatparvarligi va jadidchilik harakatidagi betakror o'rni tahlil etiladi. Muallif Avloniyning xalq maorifi, zamonaviy ta'lim, axloqiy tarbiya, milliy uyg'onish, teatr san'ati va matbuot sohalaridagi xizmatlarini ilmiy asosda yoritadi. Xususan, uning "Turon" teatr truppasi orqali ma'naviy-ma'rifiy ishlarni ommalashtirishdagi roli, shuningdek, milliy adabiy tilning shakllanishiga qo'shgan hissasi o'rganiladi. Avloniyning pedagogik qarashlari, publitsistik faoliyati va milliy uyg'onish g'oyalarining targ'ibotchisi sifatidagi merosi bugungi davr uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Аннотация

В данной научной статье анализируется уникальная роль Абдуллы Авлони в узбекском просветительском движении и джадидизме. Автор освещает его вклад в развитие народного образования, современного обучения, нравственного воспитания, национального возрождения, театрального искусства и печати на научной основе. В частности, исследуется роль Авлони в популяризации духовно-просветительской деятельности через театральную труппу «Турон», а также его вклад в формирование национального литературного языка. Педагогические взгляды, публицистическая деятельность и наследие Авлони как пропагандиста идей национального возрождения остаются актуальными и в наши дни.

Annotation

This scholarly article analyzes the unique role of Abdulla Avloniy in Uzbek enlightenment and the Jadid movement. The author explores Avloniy's contributions to public education, modern schooling, moral upbringing, national awakening, theatrical art, and journalism. Particular attention is given to his efforts in popularizing cultural and educational work through the "Turon" theater troupe, as well as his role in the development of a modern literary Uzbek language. Avloniy's pedagogical views, publicistic activities, and promotion of national revival ideas remain relevant and significant even today.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, ma'rifatparvarlik, milliy uyg'onish, "Turon" teatr truppasi, ta'lim islohotlari, matbuot, milliy til, pedagogika, ijtimoiy ong.

Ключевые слова: джадидизм, просветительство, национальное возрождение, театральная труппа «Турон», реформы образования, печать, национальный язык, педагогика, общественное сознание.

Key words: Jadidism, enlightenment, national awakening, "Turon" theater troupe, educational reforms, press, national language, pedagogy, social consciousness.

KIRISH

Abdulla Avloniy (1878-1934) Turkistonda XX asr boshlarida shakllangan milliy uyg'onish harakati, ya'ni jadidchilikning atoqli vakillaridan biri, o'zbek pedagogik tafakkuri, adabiyoti va ma'rifat sohasining yetuk namoyandasi sanaladi. U butun umrini xalq maorifi, ilm-fan, axloqiy tarbiya va milliy ongni uyg'otishga bag'ishlagan arbob sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan.

Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkent shahrining Mirobod mahallasida tug'ilgan. Dastlab eski maktab va madrasalarda, so'ng rus-tuzem maktabida tahsil olgan. Bu ikki xil ta'lim muhiti unda yangi uslubdagi maktablar ochish g'oyasini shakllantirgan. 1904-yilda Toshkentda

“Jamiyati xayriya” maktabini tashkil etgan. Avloniy eski ta’lim tizimini zamonaviy fanlar bilan boyitishni maqsad qilgan. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq” (1913) asari o‘z davrining ilg‘or darsliklaridan biri bo‘lib, yosh avlodni axloqiy, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan. Avloniy jadid adabiyotining asoschilaridan bo‘lib, “Adabiyot yoxud milliy she’riyat”, “Maktab gulistoni”, “Muallimlar uchun” kabi asarlari orqali xalqni jaholatdan chiqarish, millatni uyg‘otish, til va madaniyatga e’tibor qaratishga da’vat etgan. Uning she’rlari va publitsistik chiqishlarida ma’rifat, vatanparvarlik, birlik va taraqqiyot g‘oyalari ustuvor o‘rin egallaydi. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasi va ona tiliga bo‘lgan mehr uning asarlarida markaziy mavzulardan biri bo‘lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Avloniy o‘z g‘oyalarini keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida matbuot sohasida ham faol ish olib borgan. U “Shuhrat” (1907), “Taraqqiy” (1908), “Osiyo” va “Muallim” kabi gazeta va jurnallarni tashkil etib, jadidchilik mafkurasini ommalashtirishga hissa qo‘shgan. Ushbu nashrlar orqali ta’limdagi islohotlar, milliy o‘zlik va ijtimoiy uyg‘onish zarurligi haqida keng targ‘ibot olib borgan.

Abdulla Avloniy o‘zbek ma’rifatparvarligi va jadidchilik harakatining ko‘zga ko‘ringan arbobi sifatida nafaqat ta’lim-tarbiyada, balki teatr san’atining shakllanishida ham muhim rol o‘ynagan. U tomonidan 1913-yilda Toshkentda “Turon” teatr truppasi tashkil etilgan. Bu truppa Turkistonda yaratilgan birinchi milliy teatr jamoalaridan biri bo‘lib, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ommalashuvida, milliy o‘zlikni anglashda va ijtimoiy ongini uyg‘otishda muhim vositaga aylangan. Truppaning asosiy maqsadi – sahna orqali xalqni jaholatdan ma’rifatga, xurofotdan zamonaviylikka, zo‘ravonlikdan adolatga yetaklash edi. Avloniy teatrni millatni uyg‘otish, axloqiy yetuklik va ijtimoiy o‘zgarishlar uchun kuchli tribuna deb bilgan.

Abdulla Avloniy o‘z “tarjimai holi”da shunday yozadi: “1913-yildan boshlab xalqni ko‘zin ochmoq, madaniyatga yaqinlashtirmoq uchun teatrga kirishib, teatru ishlarini yo‘lga qo‘yuvchilarning boshlug‘u bo‘lub, Turkistonning bir necha shaharlariga borib o‘zbeklar orasida teatrga yo‘l ochdim.... “Turon” ismli teatralni blag‘otvoritelniy jamiyatni yuzaga chiqardim”. Avloniyning bu so‘zini Miyon Buzruk Solixov ham qayd etgan: “1913-yildan boshlab xavaskor tusida to‘plangan bu to‘da 1914 oxirida rasman “Turon to‘dasi” nomi bilan o‘tiladi va tobora tashkiliy tus ola boradi”.

Turkiston tumani maxfiy xizmati ma’lumotiga qaraganda, “Turon musulmon dramatik san’ati truppasi” dastlab, Abdulla Avloniy, Bashirulla Xo‘jayev, Muhammadxon Podshoxo‘jayev, Nizomiddin Xo‘jayev, Musaxon Mirzaxonov, Qudratulla Ma‘zumov, Ubaydulla Erg‘oziyev, Shomurot Shoyoqubov, Qudratulla Yunus Muhamedov, Mirsiddiq Avlonov, Shokirjon Rahimiy muassisligida tuzildi. Oradan ko‘p o‘tmay truppa Sulaymon Xo‘jayev, Badriddin A‘lamov, Hasan qori Xoniy, Eshonxo‘ja Xoniy, Sami‘ye qori Ziyaboyev, Umarqul Anorqulov, Fuzail Jonboyev, Salimxon Tillaxonov, Mannon Majidiy va boshqalar qabul qilindi, truppa tarkibi kengaydi. Millat xodimlari xalqning ijtimoiy ongini ochish, asta-sekin siyosiy yo‘nalish berish maqsadida teatrni ko‘ngilochar maskan emas, balki ibratxonaga aylantirish uchun kurashdilar. Shu bois minbar teatri asosiy yo‘nalish sifatida belgilandi. Natijada, Behbudiyning “Padarkush”, Hoji Muinning “Mazluma xotin”, Nusratulla Qudratulloning “To‘y”, Abdulla Badriyning “Juvonmarg”, Usmon Xo‘janing “Boy ila xizmatkor”, Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”, Abdulla Avloniyning “Advokatlik osonmi” pyesalari dunyoga keldi va sahna yuzini ko‘rdi. “Turon”chilar mustamlaka hokimiyati tazyiq va ta‘qibiga qaramay jiddiy ishlarni amalga oshirishga muvaffaq bo‘ldilar. Birinchi sinov spektakli – “Vatan qahramonlari” dramasi 1913-yil avgust oyida Toshkentdagi Shayx Hovandi Tahur sayilgohida ko‘rsatildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Xalqning bu asarni yaxshi kutib olganiga ishonch hosil qilgan truppa 1914-yil 27-fevraldan e’tiboran “Padarkush” dramasi bilan o‘zining rasmiy ijodiy mavsumini boshladi. Bu esa madaniyatimiz tarixida ulkan voqea bo‘lib, zamonaviy milliy teatrning tug‘ilishidan dalolat beradi. “Padarkush”ning teatr truppasi tomonidan sahnalashtirilishi kutilgandan ko‘ra, a’loroq natijalar berdi. Bu voqea Turkistondagi shu davrda mavjud bo‘lgan barcha matbuot nashrlarida yoritilgan edi. 1915-yil shu spektakl N.Xo‘jayev tomonidan qayta sahnalashtirilgan. Aytilgan asarlar tomoshabiniga Turkistonning maishiy, ijtimoiy va siyosiy ahvolini haqqoniy namoyon etdi. El farzandlarining qiynalib ishlab topayotgan mablag‘i, dehqonlarning qishin-yozin ter to‘kib qo‘lga

PEDAGOGIKA

kiritgan pullari hoy-u havas yo'lida sovurilayotgani, xotin-qizlar ahvoli xalqqa ko'zgudagidek ko'rsatildi. Xalq o'z taqdiridan qanchalik rozi va noroziligi insonlar taqdiri talqini orqali ibrat sifatida ko'rsatildi, bu bilan yangicha tafakkurga yo'l ochildi. Avloniy o'z "tarjimai holi"da "...bizning maqsadimiz zoxirda teatru bo'lsa ham botinda Turkiston yoshlarini siyosiy jihatdan birlashtiruv na inqilobga hozirlov edi", deb bejiz aytmagan.

"Turon" teatrning har bir spektaklidan so'ng hisoboti matbuotda e'lon qilingan. Hisobotlarga qaraganda, spektakldan tushgan daromad maktablar, kutubxona, mehribonlik uyi, yetimxona, hatto yarador bo'lgan rus askarlariga yordam tariqasida o'tkazilgan. Millat xodimlari bu ishlar bilan ham cheklanmaganlar. Mustabid hukumat tazyiqidan qat'i nazar, "Turon" teatr guruhi a'zolari Toshkent shahrida "Turon" va "Ravnaq" nomlarida kutubxona, qiroatxona, "Turkiston kutubxonasi", "Umid" nashriyotlarini tashkil etdilar. Bu harakat Turkistonning boshqa shaharlariga ham ko'chdi.

Har qanday yangilik xalq hayotiga osonlikcha singib ketmaganidek, teatr ham dastlab Turkiston hududida katta qarshilik va to'siqlarga, hatto hujumlarga duch keldi. Adabiyotshunos olim Shuhrat Rizayev o'zining "Jadid dramasi" kitobida bu haqida alohida to'xtaladi. Uning fikricha, bunday to'siqlarning eng kattasi mustamlakachi ma'murlar bo'lib, dramatik asar bosmadan chiqib, to sahna yuzini ko'rgunga qadar senzuraning ming chig'irig'idan o'tishi kerak edi. Bu jarayonda har bir so'z va jumlagi alohida e'tibor berilardi. Nogahon odamlarning ongini uyg'otib yuborishi yoki ularni chor hokimiyatiga zid bo'lgan harakatga undovchi o'rinlar asardan olib tashlanardi. 1917-yil oktyabr to'ntarishidan so'ng, "Turon" teatri hukumat ixtiyoriga olinib, unga davlat teatri maqomi berilgan.

Avloniy rahbarligidagi "Turon" truppasi o'zbek sahna san'atining asoschilaridan biri sifatida tarixda qoldi. Bu truppa orqali o'zbek xalqi ilk bor zamonaviy teatrning ijtimoiy-ma'naviy kuchini his qildi. Truppaning spektakllari orqali jadidlar o'z g'oyalarini keng xalq ommasiga tushunarli va obrazli tilda etkazishga muvaffaq bo'ldilar. Bu teatr ommaviy madaniyat shakllanishida ham muhim rol o'ynadi. Bu teatr truppasi Turkistondagi xalq teatri rivojining o'zagini tashkil etdi.

Abdulla Avloniy va Munavvarqori Abdurashidxonov milliy adabiy til xususida jiddiy ish olib borishdi. Natijada maktab va sahna vositasida yangi o'zbek adabiy tili shakllana boshladi. Milliy matbuot tili avvalgi ro'znomalar tilidan ancha farqlandi. Til tozalandi, viloyatlar va shaharlar aholisi uchun tushunarli bir adabiy til vujudga keldi. Abdulla Avloniy "Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oynayi hayoti – til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmoq millatning ruhini yo'qotmoqdir", degan edi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Avloniy – o'zbek jadidchilik harakatining fidoyi namoyandasi, milliy uyg'onish va ma'rifat yo'lida fidokorona xizmat qilgan ulug' siymolardan biridir. U o'zining boy ilmiy-ma'rifiy merosi, adabiy va pedagogik asarlari orqali xalq tafakkurini yuksaltirish, millatni uyg'otish va zamonaviy ta'limni rivojlantirishga beqiyos hissa qo'shgan. Avloniyning ijodi bugungi kun o'zbek ziyolilari, pedagoglari va yosh avlod uchun nafaqat tarixiy, balki ma'naviy dasturilamal bo'lib, undagi g'oyalar milliy o'zlikni anglash va ma'naviy taraqqiyot jarayonida muhim yo'nalish sifatida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.Rizayev. Jadid dramasi. – Toshkent, Sharq, 1997. – B. 60.
2. B.Solihov. O'zbek teatr tarixi uchun materiallar. – Toshkent, O'zdamnashr, 1935. – B.79.
3. S.Ahmad. "Turon" sanoyi nafisa ittifoqi // Jadid gazetasi. 11/2024. – B.7.
4. R.Sharipov. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. – Toshkent, O'qituvchi, 2002. – B.27.
5. Sh.Rizayev. Jadid dramasi. – Toshkent, Sharq, 1997. – B. 95.
6. S.Ahmad. "Turon" sanoyi nafisa ittifoqi // Jadid gazetasi. 11/2024. – B.7.